



MAST HOLATDAGI SHAXSLARNI REABILITATSIYA QILISH MASALARALARIDA VUJUDGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 317-guruh kursanti
Hoshimjonov Diyorbek Abdurashid o'g'li*

Annotatsiya: *Ilmiy maqolada profilaktika inspektorining mast holatdagi shaxslarni reabilitatsiya qilish asoslari, bundan tashqari ushbu sohada amalga oshirilishi lozimi bo'lgan ishlar, ushbu sohada yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha xalqaro xorij tajribalarini va ularni o'zimizda joriy qilishda vujudga keladigan muammolar va ularni yechimlari yetarlicha yoritilgan.*

Annotation: *In the scientific article, the basics of the prevention inspector's rehabilitation of intoxicated persons, in addition, the work that should be done in this area, the problems that arise in this area and international foreign experiences on their elimination, and the problems that arise when introducing them in our country and their solutions are sufficiently covered.*

Hukumat qarori bilan jamoat joyida turli vositalar ta'sirida mast holda yurgan shaxslarni IIO xodimlari tumanlararo tibbiy yordam ko'rsatish punktlariga olib borishi belgilandi. U yerda tartibni saqlash va huquqbazarliklarning oldini olish uchun Milliy gvardiyaning qo'riqlash bo'linmalari xodimlari qo'yildi.

Hukumatning 4 noyabrdagi [644-sonli] qarori bilan «Alkogol, giyohvandlik vositalari ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mastlik holatida bo'lgan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish tartibi to'g'risida»gi nizom tasdiqlandi. Bu haqda Adliya vazirligi xabar berdi.

Unga ko'ra, mastlik holatida bo'lgan shaxslarga tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari tarkibida kamida 10 o'rinni tumanlararo tibbiy yordam ko'rsatish punktlari tashkil qilinadi.

Punktga ichki rejim hamda jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklarning oldini olish va bartaraf etish uchun Milliy gvardiyaning qo'riqlash bo'linmalari xodimlari qo'yildi.

Jamoat joylarida (yashash joyidan olib borish bundan mustasno) bo'lgan mast shaxslarni tibbiy yordam ko'rsatish punktlariga ichki ishlar organlari xodimlari olib boradi.

Olib borishga quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

shaxsning maqsadli harakatlar sodir etish yoki o'zi mustaqil harakatlanish qobiliyatini yo'qtganligi (biror joyda yotgan yoki o'tirgan holati);

shaxsning uyquchanligi, uyg'otishning qiyinligi;

shaxsning tikka holatda mustaqil tura olmasligi;

nutqining noaniq, tushunarsiz, o'zaro bog'liq bo'limgan uzuq-yuluq alohida so'zlardan tashkil topishi (g'uldirashi);

savollarni yaxshi tushunmasligi, o'zining qayerdaligini aniq anglab yetmasligi.

Mast odam tibbiy yordam ko'rsatish punktida 12 soatgacha bo'lganda dalolatnomasi, 12 soatdan ko'p vaqt bo'lganda va tibbiy ko'rsatmalar mavjud bo'lgan hollarda kasallik tarixi rasmiylashtiriladi.

Tibbiy yordam ko'rsatish punktiga olib kelingan mastlik holatidagi shaxslar sutkaning tungi vaqtida (soat 23:00 dan 06:00 gacha) yoki yilning sovuq davrida ularning qarindoshlari kuzatuvida chiqarib yuboriladi.

Shunday bo'lishiga qaramay bu sohada hali yetarlicha muammo va kamchiliklar uchrab turibdi. Bu boradagi fuqarolar tomonidan ham yetarlicha ariza va shikoyatlar kelib tushmoqda. Ulrdan birini ko'rib chiqsak.



Kun.uz saytida joriy yilning 21 fevral kuni «Hushyorxon»dan hushyor bo'ling: Navoiydag'i tinchi buzilayotgan bir mahalla haqida» sarlavhani tanqidiy maqola e'lon qilingan edi.Unda Navoiy shahridagi «Binokor» mahallasi aholisi bir necha yillardan buyon hadik va qo'rquvda yashayotgani, bunga esa mahalladagi aholi xonadonlari orasida joylashgan Navoiy viloyati narkologiya dispanseriga qarashli «Mastlik holatini aniqlash xonasi» va «Mast holdagi fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatish va reabilitatsiya punkti» atrofidagi mojarolar va boshqa salbiy holatlar sabab bo'layotgani yoritilgan edi.Mazkur maskanlarga ichki ishlar xodimlari tomonidan haydovchilar spirtli ichimlik iste'mol qilganini aniqlash uchun, mast fuqarolar esa ularga tibbiy yordam ko'rsatilishi uchun olib kelinadi.«Mast holdagi fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatish va reabilitatsiya punktiga olib kelingan fuqarolar bir necha soat o'tib shu yerdan qo'yib yuboriladi. Ayrimlari mahalla hududining har joyida yotib olishadi. Bundaylarning mahalla hududidan qachon va qanday holatda chiqib ketishi aniq emas. Axir, bu punkt uyimiz qarshisida joylashgan. Mahalla aholisi farzandlari xavfsizligidan doim xavotirda yashaydi. Qolaversa, farzandlarimiz ko'cha-ko'yda yurganda bunday shaxslarni turli holatlarda ko'radi. Bu farzandlarimiz tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ular ham doim qo'rquvda yuradi. Mahalla aholisi farzandlari ko'chaga chiqarishga qo'rqadi. Bu muammo bizni bir necha yillardan buyon qiy nab keladi. Avval ham hokimliklar va mutasaddi tashkilotlarga murojaat qilganimiz. Ammo masala ijobjiy yechim topmayapti», - deya e'tirozlarini bildirgan edi shu mahallada istiqomat qiluvchi Nazira Rahimova.Mahalla aholisining so'zlarini isbotlovchi suratlar ham keltirilgandi.O'rganishimiz davomida ushbu masala yuzasidan «Binokor» mahallasi raisi Jobir Mirzayev ham o'z fikrlarini aytgan edi.«Bu yerga ichki ishlar xodimlari



tomonidan mast holatdagi shaxslar olib kelinadi. Shu yerning o‘zida turli nizolar kelib chiqadi. Ayniqsa, tunda. Mast holdagi fuqarolarga tibbiy yordam ko‘rsatish va reabilitatsiya punktidan qo‘yib yuborilgan shaxslar bir-birlari bilan o‘zaro janjallahadi. Baqir-chaqirdan mahalla aholisiga tinchlik yo‘q. Bu maskanlarni mahalla hududidan ko‘chirish borasida hokimiyat vakillariga bir necha bor murojaat qilganmiz. Ammo biror foydasi bo‘lgani yo‘q», - degan edi Mirzayev. Ma‘lum bo‘lishicha, «Mast holdagi fuqarolarga tibbiy yordam ko‘rsatish va reabilitatsiya punkti»ga olib kelingan mast holatdagi shaxslar holatiga qarab 3 soatdan 12 soatgacha ushlab turiladi. Zarur tibbiy yordamlar ko‘rsatilib, keyin qo‘yib yuboriladi. Ammo uning qayerga ketishi yetarlicha nazorat qilinmaydi. Bu esa mahalla aholisi uchun xavotirli holatdir. Mahalla aholisining e’tirozlari yuzasidan Navoiy shahar hokimining qurilish masalalariga mas’ul o‘rnbosari Ibrohim Qodirov bilan ham suhbatlashganimizda, mutasaddi bu masala Sog‘liqni saqlash vazirligi va Ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda hal etilishi lozimligini bildirgandi. Afsuski, bu masala Navoiy viloyati mutasaddilari e’tiboridan chetda qoldi. Mahalla aholisi esa bizga takroran murojaat qildi. Takroriy murojaat asosida holatni qayta o‘rganganimizda haqiqatan ham mahalla aholisi bu muammo tufayli xavotirda yashayotganiga guvoh bo‘ldik. Sababi, mahalla ko‘chalarida mast holatda uxbab yotgan shaxslarni ko‘rish mumkin. Qolaversa, «hushyoxrona» atrofidagi mojarolardan mahalla aholisi bezib qolgan. Hatto farzandlarini ham ko‘chaga chiqarishga qo‘rqishadi. Ushbu masala yuzasidan Navoiy shahar hokimining qurilish masalalar bo‘yicha mas’ul o‘rnbosari Ibrohim Qodirov bilan takroriy suhbatlashganimizda bu masala ichki ishlar organlariga bog‘liqligini aytib o‘tdi. Shu holat bo‘yicha Navoiy shahar IIB boshlig‘i Farhod Sidiqov bilan bog‘landik. «Bu masalani hal etish shahar hokimiyatiga ham bog‘liq. Hokimiyat bilan maslahatlashgan holda bu masala yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko‘ramiz. Holatdan xabarimiz bor, tegishli ishlar ham olib borilyapti. Sizga uch-to‘rt kun ichida bu bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan batafsil ma‘lumot beramiz», - deydi Sidiqov. Ammo masalaning boshqa jihatni bor. Mahalla hududidan bu muassasalarni ko‘chirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilgunga qadar mahallada nega osoyishtalik ta‘minlanmayapti? Nega mahalla aholisi doim xavotirda? Mahallada mas’ul profilaktika inspektori va yordamchisi yo‘qmi? Bo‘lsa, nega mast kimsalar mahalla hududida bemalol yumalab yotibdi? Bundan ko‘rinib turibdiki, viloyat va shahardagi tegishli tashkilot mutasaddilari, mas’ullari mahallaning bu muammosiga panja orasidan qaramoqda. Aks holda, hech bo‘lma ganda mahalla aholisining osoyishtaligini ta‘minlab qo‘ygan bo‘lishardi. Doim hadikda yashayotgan «Binokor» mahallasi aholisi esa bizdan yordam so‘ramagan bo‘lar edi. Kun.uz tegishli vazirliklar, Navoiy viloyati va shahri mutasaddilari bu muammoga jiddiy e’tibor qaratishiga ishonch bildiradi va voqealar rivojini kuzatib boradi. Zero, har bir shahar yoki tumanning obodligi, osoyishtaligi mahalladan boshlanadi. Ayniqsa, mahallalarda aholi tinchligini saqlash, ularning osoyishta hayot kechirishini ta‘minlash doimo ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Qachonki, mahallada xavfsizlik, sog‘lom turmush tarzi ta‘minlansa, aholisi ham xotirjam yashaydi



Ushbu holatlardan ayon bo‘layaptiki, bu borada hali amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan ishlar talaygina. Bu faqatgina IIO va Sog‘lijni saqlash vazirligining muammosi emas balkim butun bir jamiyatning muammosidir. Bu boradagi ishlarda barcha organlar bir yoqadan bosh chiqarib kurashsagina ma’lum bir natijaga erishish mumkin.